



BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA SUG'URTA FAOLIYATIGA ILMIY YONDASHUVLAR

Yadgarov Akram Akbarovich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.d., dotsent

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 4 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss4/a2	Maqolada barqaror rivojlantirish maqsadlarini ta'minlashda sug'urta faoliyatining ahamiyati xalqaro darajada manbaalarga tayangan holda ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari talablaridan kelib chiqqan holda aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi tarmoqlarni sug'urtalash tizimini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. <i>barqaror rivojlanish maqsadlari, ixtiyoriy va majburiy sug'urta, agrosug'urta, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash.</i>
KEYWORDS	

Kirish

Dunyoda ro'y berayotgan global iqlim o'zgarishlari xavfining ortib borishi, texnogen va kutilmagan tabiiy ofatlar natijasida moliyaviy talafotlarning yildan-yilga ortishi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi dunyo hamjamiyati va tadqiqotchilarining e'tiborini o'ziga tortgan holda xalqaro sug'urta tashkilotlarini ham tahlikaga solmoqda. Global iqlim o'zgarishining bevosita qishloq xo'jaligi faoliyatiga jiddiy ta'siri natijasida aholining oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq turli muammolarini keltirib chiqarmoqda. Xususan, «iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlar ro'y berishi oqibatida 2021 yilda ko'rilgan zararni 105 mlrd. AQSh dollari global sug'urtalovchilar tomonidan qoplab berildi».

Jahon mamlakatlari bo'ylab global muammolarning avj olishi bugungi kunda barchamizning ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan texnogen va tabiiy ofatlar barchani birdek tahlikaga solmoqda. Shu bois, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015 yilda tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan BMT ning 2030 yilgacha "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari va 169 ta umumiy maqsadlari (SDG) belgilandi.

Maqolada "Barqaror rivojlanish maqsadlari" talablaridan kelib chiqqan holda agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini kutilmagan har qanday stixiyali va tabiiy ofatlardan muhofaza qilish dolzarb ahamiyatga moliqdir. Bugungi kunning ustivor masalalaridan biri sifatida agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtaviy himoyalash asosida ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida istiqbolli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar sharhi

Sug'urta faoliyati chet el olimlarining ham tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, sug'urta faoliyati borasida o'zining nazariy qarashlarini ilgari surgan F.Berdou sug'urta faoliyati bu o'tgan XVI asrning oxirida Buyuk Britaniyada dastlab amalga oshirilganligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildirgan holda sug'urta faoliyati 1666 yilda Londonda ro'y bergan Buyuk London yong'ini hamda Britaniyaning xalqaro dengiz savdosidagi ahamiyati yuqori bo'lganligi sababi bilan izohlaydi. Darhaqiqat, sug'urta faoliyatining asosiy maqsadi, ko'rilgan va ko'rilish xavfi bo'lgan moliyaviy zararlardan himoya qilish hamda moliyaviy tanglikni oldini olishga qaratiladi.

J.François Outreville o'zining ilmiy tadqiqotlarini sug'urta faoliyatiga bag'ishlagan holda sug'urta - bu turli yo'qotishlar xavfidan

himoyalashning keng tarqalgan vositasi bo'lib insonning xohish-istaklariga javob berish maqsadida yaratilgan. Sug'urta shaxslarning turli xavf risklaridan sodir bo'lish ehtimolini bashorat qilgan holda moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi deb hisoblaydi. Tadqiqotchining sug'urta tushunchasiga bo'lgan nazariy yondashuvlariga qo'shilgan holda sug'urta faoliyati bevosita yuridik va jismoniy shaxslarning turli baxtsiz va kutilmagan stixiyali yoki texnogen hodisalar natijasida yuzaga keladigan talofatlarni moliyaviy jihatdan qoplab berishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

BMT ning 2030 yilgacha "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida qabul qilingan 15-maqsadi "...bevosita xalqaro miqyosda yer usti ekotizimlarini muhofaza qilish, ularni tiklash hamda barqaror foydalanishni rag'batlantirish, o'rmon resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash, umumiy darajada cho'llanishga qarshi kurashish hamda yer degradatsiyasini to'xtatish va qaytarish, shuningdek, biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olishga qaratilgan maxsus maqsad va vazifalarni belgilab oldi".

"Barqaror rivojlanish maqsadlari" ga bag'ishlangan ushbu hujjatda bevosita ko'zda tutilgan asosiy masalalar qatorida insoniyat va sayyora uchun tinchlik va farovonlikni hozir hamda kelajak avlod uchun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida global hamkorlik masalalarini amalga oshirish asnosida jahon mamlakatlarida kambag'allik va qashshoqlikka barham berish, insonlar sog'ligini saqlash hamda ta'lim sifatini oshirish, davlatlar o'rtasida tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish, global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish, dunyo okeanlarini ifloslanishiga qarshi kurashish hamda tabiiy ekotizim va o'rmonlarni muhofaza qilish va boshqa masalalar o'z aksini topgan.

Jahonda salmoqli o'rminga ega bo'layotgan respublikamiz ham Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida belgilangan talablardan kelib chiqib, hamohang tarzda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida bevosita mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda koronavirus pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy

oqibatlarini bartaraf etish hamda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni belgilab oldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-sonli qarorining 13 va 15-maqsadlarida iqlim o'zgarishlari oqibatlariga qarshi kurashish, ekotizimni himoyalash va tiklash, o'rmondan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish kabi masalalar o'z aksini topgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda global darajada dunyo aholisining buguni va kelajakdagi farovonligini ta'minlashda olib borilayotgan islohotlar ko'lamida mavjud ekotizimni muhofaza qilish, agrar islohotlarni samarali amalga oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, global darajada tus olayotgan turli ekologik-iqtisodiy inqirozlar ma'lum darajada aholining iqtisodiy holatiga va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir etadi. Shu bois, moliyaviy yo'qotishlarni bartaraf etishda sug'urta faoliyatining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Mamlakatimiz o'z istiqboliga erishgan davrdan boshlab, o'zining tadbiriy rivojlanish jarayonlarini iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari rivojida bevosita huquqiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi yurtimiz farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Barqaror taraqqiyotni ko'zlagan davlatning kelajagi iqtisodiyotning tarmoq va sohalari rivojiga bevosita bog'liq. Shu jihatdan, iqtisodiyot sektorida mavjud bo'lgan moliyaviy institutlar (bank, moliya, soliq, valyuta, fond va tovar birjalari faoliyati) kabi sug'urta faoliyatini ham barqaror darajada rivojlantirish zamon talabiga aylandi.

Sug'urta faoliyati jamiyat farovonligini ta'minlashda, oziq-ovqat xavfsizligini oldini olishda, agrar sohani turli xavf-xatarlardan moliyaviy jihatdan muhofaza qilishda, aholining turli mol-mulklarining himoya kafolatini ta'minlashda, insonlarning hayoti hamda salomatligini ijtimoiy va moddiy jihatdan himoya qilishda ishtirok etadigan muhim strategik sohalardan biridir.

Har bir davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi tarmoq va sohalarda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning samarasiga bog'liq. Respublikamizda sug'urta faoliyatining huquqiy asoslariga ilk poydevor 1993 yil 6 mayda "Sug'urta to'g'risida" gi qonunning qabul qilinishidir, shuningdek, 2002 yil 5 aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonuni hamda amaldagi 2021 yil 23 noyabrda O'RQ-730-sonli 72-moddani o'z ichiga olgan yangi tahrirdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi qonunlarda o'z aksini topgan.

Yangi tahrirdagi qonunda bevosita "Sug'urta - muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararni o'rni qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar" hisoblanadi.

Darhaqiqat, sug'urta faoliyati bevosita jamiyat aholisining mulkiy hamda nomulkiy manfaatlarini himoyalaydigan, iqtisodiy xavfsizlik va moddiy barqarorlikni ta'minlovchi samarali moliyaviy instrument sifatida rivojlanib, takomillashib kelmokda.

Sug'urta faoliyatiga tegishli manbaalar va ilmiy adabiyotlarni nazariy jihatdan tadqiq qilish, sug'urta faoliyatining rivojlanish bosqichlari, sug'urtaning iqtisodiyotdagi o'rni va vazifalari, tabiiy va texnogen hodisalar davrida sug'urtaning nechog'li ahamiyatini ilmiy jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Sug'urta munosabatlariga tarixiy jihatdan to'xtaladigan bo'lsak, u ming yillar oldin vujudga kelib, miloddan avval 1700 yilda Qadimgi Bobil podshohining qonunlariga binoan, kredit mablag'larini ya'ni, qarzga olingan mablag'larini sug'urta qilish tadbirlari Bobil hukmroni Hammurapi kodeksiga asosan yaratilgan. Dastlabki sug'urta doirasidagi shartnomalar 7-8 asr muqaddam Vizantiyada tuzilgan.

Sug'urta faoliyati rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olim A.Manes o'z davrida sohaning nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy tadqiqotlarida yoritib o'tgan. U o'z ishlarida umumiy va tarmoqlar sug'urtasini o'rgan holda sug'urta bu – kutilmagan tarzda ayrim holatlarning ro'y berishi turli zararlarni yuzaga kelishi natijasida moddiy ahvolni yaxshilash uchun oldindan ma'lum bo'lgan pul mablag'larini zarur bo'lishi hamda ushbu mablag'larga bo'lgan zaruriyat to'liq yoki qisman sug'urta orqali qoplanishi nazarda tutilgan.

Robert Hartwig ham sug'urta faoliyati borasidagi tadqiqotlarida sug'urta sanoati – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan o'z sug'urtalovchilari hisobiga moliyaviy aktivlarini o'tkazish orqali sug'urta kompaniyasi tomonidan turli xavf-xatarlardan himoya qilinishi

ta'minlanadi. Sug'urta sektorini asosan uchta toifaga bo'lgan holda: mulk, hayot va sog'liq sug'urtasi mavjudligi haqida to'xtalib o'tgan.

Sug'urta faoliyatiga nazariy-uslubiy jihatdan yondashuvlar va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan va imkon qadar biz yuqorida ayrimlariga to'xtalib o'tdik xolos. Sug'urta faoliyatini rivojlanishiga MDH va mamlakatimiz olimlari ma'lum darajada o'z hissalarini qo'shganlar.

MDH olimlaridan Yu.T.Axvlediani bevosita sug'urta tizimining mamlakatda samarali faoliyat yuritishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning strategik omillaridan biri bo'lib, ijtimoiy, nafaqa ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal qilishga imkon berishii, fuqarolarning turmush farovonligini oshirishga yordam berishi, shuningdek, davlatning investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritgan. Sug'urta - nafaqat byudjetni sug'urta hodisalarini yuz berganda zararni qoplash xarajatlaridan ozod qiladi, balki, bozor iqtisodiyoti sharoitida uzoq muddatli investitsiyalarning eng barqaror manbalaridan biri hisoblanadi. Rossiyaalik olimning fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, sug'urta tizimi bevosita har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda o'ziga xos shakllantirilgan sug'urta fondi mablag'lari hisobiga turli ko'rilgan moliyaviy zararlarni qoplashda, shuningdek, ichki investitsiyaga yo'naltirishga ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

N.B.Grishchenko tomonidan turli xavf-xatarlarni bartaraf etishni sug'urta tizimi orqali amalga oshirish, ya'ni "sug'urta tizimi orqali makro, mezo va mikro darajada turli tavakkalchiliklarning moliyaviy oqibatlarini va javobgarligi bevosita sug'urta kompaniyalariga topshirilishidan" iboratligini ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, turli sug'urta faoliyatiga oid iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning xavf-xatarni bartaraf etish vazifasi asosan bir xil va bu sohada yagona yondashuv mavjudligini ta'kidlaymiz.

Hozirda dunyo miqyosida turli iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq xavflar va tabiiy ofatlarning chegarasiz darajada ortib borishi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga ta'sir qilmoqda. Bu borada MDH olimlaridan Ye.A.Tokareva ham bevosita o'z tadqiqotlarida tabiiy ofatlar xavfini moliyaviy yumshatish borasida sug'urtalash davlatning asosiy tayanadigan omillaridan biri sifatida izohlagan. Sug'urta bozorida xususiy sug'urta xizmatlarini rivojlantirish va sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish, tabiiy ofatlar xavfini to'g'ridan-to'g'ri davlat tuzilmalari tomonidan sug'urtalash masalalariga to'xtalib o'tgan. Mamlakatda sug'urtalash shakllarini tanlash uning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda tabiiy ofatlar va ulardan himoyalalanish usullari, qadriyatlar, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va rivojlanishning boshqa jihatlarini haqidagi o'z g'oyalarni ilgari surgan.

Dunyo mamlakatlarida sug'urta faoliyatining rivojiga bo'lgan e'tibor va sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining natijasini bermoqda. Biroq, iqlim o'zgarishlari xavfining ortishi yangi sug'urta turlarini amalga joriy etishni talab qiladi. Shu jihatdan, ekologik sug'urta masalasi borasida S.M.Suxov tomonidan ekologik sug'urtaning nazariy va uslubiy jihatlariga to'xtalib quyidagi asosiy funksiyalarini aniqlashga imkon berishi, ya'ni ekologik sug'urtani joriy qilinishi atrof-muhitni favqulodda ifloslanishi natijasida dam oluvchilarga yetkazilgan zararni qoplashi, atrof-muhitning favqulodda ifloslanishi va uchinchi shaxslarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar xavfini baholash muvofiqligi, sug'urtalovchi tomonidan shakllantirilgan turli oldini olish choralarini ko'rish asosida sug'urta zaxirasini yuzaga keltirish haqida o'z fikrlarini ta'kidlab o'tgan.

Bugungi sug'urta faoliyatiga tahlili yondoshishimiz maqsadga muvofiq. Sug'urta bozorida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtaning asosan majburiy va ixtiyoriy turlari amalga oshirib kelinmoqda. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratilgan holda sug'urta qoplamalari tahlili keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 2016 yilda jami 130,5 mlrd. so'mmi tashkil etgan holda 54,0 foizi ixtiyoriy sug'urta turiga mos kelsa, 46,0 foizi majburiy sug'urta turiga to'g'ri keladi. Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, majburiy sug'urtaga nisbatan ixtiyoriy sug'urtaning ulushi yillar davomida ortib borishini ko'rish mumkin. 2021 yil holatiga ko'ra, ixtiyoriy sug'urtaning ulushi 81,7 foizga yetib, majburiy sug'urtaning ulushi 18,3 foizni tashkil etdi.

Sug'urta bozorida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtaning asosan majburiy va ixtiyoriy turlari amalga oshirib kelinmoqda. Majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratilgan holda sug'urta qoplamalari tahlili keltirilgan bo'lib, unga ko'ra 2016 yilda jami 130,5 mlrd. so'mmi tashkil etgan holda 54,0 foizi ixtiyoriy sug'urta turiga mos kelsa, 46,0 foizi majburiy sug'urta turiga to'g'ri keladi. Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, majburiy sug'urtaga nisbatan ixtiyoriy sug'urtaning ulushi yillar davomida ortib borishini ko'rish mumkin. 2021 yil holatiga ko'ra, ixtiyoriy sug'urtaning

ulushi 81,7 foizga yetib, majburiy sug'urtaning ulushi 18,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga tayangan holda aytish joizki, 2012 yilda sug'urta kompaniyalarining jami ustav kapitali 289,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, 2021 yil holatiga ko'ra 1546,20 mlrd. so'mni tashkil etgan. Sug'urta kompaniyalarining ustav kapitali hajmi 5,3 marta o'sishga erishilgan.

Sug'urta bozorida TOP-5 talik yetakchi sug'urta kompaniyalarining sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, 2017-2018 yillarda "O'zagrosug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi yetakchilik qilgan bo'lsa, 2019-2021 yillarda "O'zbekinvest" EISK AJ uch yil mobaynida yetakchi sug'urta kompaniyasi sifatida yuqori o'rinni band qilib kelmoqda. Xususan, 2017 yil yakunlari bo'yicha TOP-5 talikda yetakchi sug'urta kompaniyalarining umumiy sug'urta mukofotlari ulushiga nisbatan 52,9 foizni tashkil etsa, 2021 yil holatiga ko'ra 49,8 foizni tashkil etgan holda 5 yil ichida ushbu kompaniyalarning sug'urta bozoridagi ulushi kamayishi bevosita sug'urta bozoriga yangi sug'urta kompaniyalarning kirib kelishi natijasida keskin raqobat muhitining shakllanganligidan dalolat beradi

Xulosa va takliflar

Xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz sug'urta bozorida deyarli yigirma besh yil ichida amalga oshirilgan islohotlar o'z samarasini berib kelmoqda. Biroq, sug'urta kompaniyalariga to'laqonli mustaqillikni berish, sug'urta faoliyatiga doimiy nazorat qiluvchi organlarning aralashuvini oldini olish, sohadagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish, sug'urta bozorida erkin raqobat muhitini shakllantirish, sug'urta bozorida kadrlar tayorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va ularning rivojlangan davlatlardagi sug'urta kompaniyalarda malakasini oshirish, qolaversa, sug'urta faoliyatida yangi sug'urta xizmatlarini joriy etishda aholimizning real daromadlarini hisobga olgan holda sug'urta tariflarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar reyting agentliklari baholab kelmoqda, bu esa sug'urta bozorida kompaniya imidjini oshirishga xizmat qiladi. Sug'urta kompaniyalarining sug'urtalanuvchi mijozlar oldidagi ma'suliyati va ishonchlik darajasini baholashda ijtimoiy so'rovnoma o'tkazishni tashkil qilish lozim.

References:

1. Miao, R. Climate, insurance and innovation: The case of drought and innovations in drought-tolerant traits in US agriculture. *European Review of Agricultural Economics*. Volume 47, Issue 5, 1 December 2020, Pages 1826-1860. <https://www.scopus.com/record/display.uri?id=2-s2.0-85092720063&origin>.
2. Fleckenstein, M., Lythgoe, A., Lu, J., Thompson, N., Doering, O., Harden, S., Getson, J.M., Prokopy, L. Crop insurance: A barrier to conservation adoption? *Journal of Environmental Management*. Volume 276, 15 December 2020. <https://www.scopus.com/record/display.uri?id=2-s2.0-85090140104&origin>
3. Tahereh Biglari, Hamideh Maleksaeidi, Farzad Eskandari, Mohammad Jalali. Livestock insurance as a mechanism for household resilience of livestock herders to climate change: Evidence from Iran. *Land Use Policy* Volume 87, September 2019, 104043. <https://ideas.repec.org/a/eee/lauspo/v87y2019ics0264837719304168.html>
4. Felix Johna, Russell Toth, Karin Frank, Jürgen Groeneveld, Birgit Müller. Ecological Vulnerability Through Insurance? Potential Unintended Consequences of Livestock Drought Insurance. *Ecological Economics* Volume 157, March 2019, Pages 357-368. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0921800918300132>.
5. A.Yadgarov. International insurance market and experience of foreign countries in agricultural insurance. *Economics and Innovative Technologies*. Vol. 2020 > No. 2 (2020). <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/iss2/>
6. A.Yadgarov. (2020). AgroInsurance-As A Mitigating Financial Lever For Climate Change In Agriculture. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 2251 - 2258. <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/17501>
7. A.Yadgarov. The importance of using the agricultural insurance system in increasing the volume of agricultural production in pandemic conditions. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR)* ISSN: 2319-1422 Vol.9, July 2020, Impact Factor: SJIF 2020 = 7.126. 31-37 page. <https://saarj.com/wp-content/uploads/sjbir-july-2020-full-journal>
8. A.Yadgarov. Issues of food safety on the basis of agricultural insurance. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering* ISSN: 2689-1018. JULY 2020. Page No.: 43-52 Volume-II Issue-VII PUBLISHED: 30 JULY 2020. <https://usajournalshub.com/index.php/tajabe/article/view/576/539>
9. <http://www.agros.uz> Annual reporting data of Uzagrosugurta JSC.